

**INNOVATSION TADBIRKORLIKNI TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.**

**SHANAZAROVA N.B.**

*Toshkent davlat transport universiteti, dotsent v.b.*

**KORGANOVA S.S. f. f.n., dotsent**

*M.Auezov nomidagi*

*Janubiy Qozog'iston tadqiqotlar universiteti.*

*Chimkent, Qozog'iston*

*mail: [sevinch\\_kor@mail.ru](mailto:sevinch_kor@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion tadbirkorlikni rlli, uni tashkiliy asoslari,vazifalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Texnopark,innovatsion markazlar,biznes inkubator, innovatsion loyiha,

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik va har bir sohada innovatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki, tadbirkorlikni rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategic vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-sentyabrdagi “Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga tadbirkorlik sub’ektlarini keng jalb etish, tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarining o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, bo‘sh turgan obyektlar, yer uchastkalari va boshqa infratuzilmadan samarali va oqilona foydalanish zarurligini aniqlab berdi. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘shish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash

shu kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni, zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir” deb atadi. Faol tadbirkor, deganda, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlar tushuniladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Shu ma’noda, yangi tashkil qilingan Innovatsion rivojlanish faoliyat nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajarishi kerak.

Keyingi yillardagi eng ustuvor va o‘ziga xos vazifa bu - tezkorlik bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori ish haqi taklif etadigan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘lib qoladi. Muammoning amaliy yechimlaridan biri sifatida innovatsiya – yuqori texnologik ish o‘rni tamoyiliga asoslangan mamlakatning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga qaratilgan alohida strategik amaliy dasturlar ishlab chiqildi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida ilg‘or g‘oyalar, "smart" texnologiyalar va nou-xaularga asoslangan Innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutilmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasida – faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini, soliq va bojxona siyosatini, bank-moliya sohasini yanada takomillashtirish, agrar sektorni isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga imtiyozlar taqdim qilgan holda individual imtiyozlar berishdan voz kechish, hududlarni faol rivojlantirishda faol innovatsion tabrikorlikni roli ulkan

Milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish, xususan, xorijiy kapitalni jalb etish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday hududda investitsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun esa, o‘sha hududda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay

infrastrukturani tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoni maxsus iqtisodiy hududlar (MIH), texnoparklar, industrial parklar, texnologiya transferi, innovatsion markazlarini ochish hamda davlat-xususiy sheriklikda amalga oshirish orqali bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Texnoparklar bu ilmiy tashkilotlar, konstruktorlik byurolari, o‘quv muassasalari, sanoat korxonalarini yoki ularning birlashmasi shaklida bo‘lib, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning hududiy integratsiyalashuv shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Texnoparklarning bajaradigan vazifalari, hajmi va xususiyatiga ko‘ra besh xil turi ajratiladi.

1. Innovatsion markazlar - yuqori texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan yangi firmalarga yordam ko‘rsatadigan markaz hisoblanadi. Innovatsion markazlarga G‘arbiy Germaniya markazlarini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Berlin Innovatsion Markazi yig‘ish va rivojlantirish ishlari bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar uchun biznes inkubator hisoblanadi. U tashkilotlarga moliyaviy, texnologik va tashkiliy masalalarni hal qilishda yordam beradi.

2. Ilmiy-tadqiqot parklari - yangi va yetuk firmalarga xizmat ko‘rsatadigan ilmiy va tadqiqot parklari yoki universitetlar bilan yaqin aloqalarni o‘rnatadi. Masalan, Kembrij ilmiy parkida elektronika, asbobsozlik, dasturiy ta‘minot va boshqa sohalarni qamrab oladigan 400 dan ortiq yuqori texnologiyali kichik firmalar faoliyat ko‘rsatadi, shuningdek, ushbu ilmiy park o‘z faoliyatida (tadqiqot, ishlab chiqarish, konsalting) turlicha bo‘lgan yangi ventur kapital firmalarini nazorat qiladi.

3. Texnologiyalar parklari ixtiyorida bilimlarni talab qiladigan firmalarning butun tarmog‘i va ishlab chiqarish mavjud, ammo universitetlar yoki ilmiy-tadqiqot institutlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatilmagan.

4. Texnologik markazlar - bu yangi yuqori texnologiyali firmalarni rivojlantirish uchun yaratilgan servis korxonalaridir. Ularning asosiy vazifasi bilim talab qiladigan kichik biznesni rivojlantirishdir. Ularning soni ayniqsa AQShda juda ko‘p (400 dan ortiq). Masalan, mahalliy texnologiya institutiga asoslangan Jorjiya mukammallashtirish markazi. Markaz tashkil topgan kundan boshlab dastlabki uch yil ichida yangi firmalarga maslahat beradi va ularga moliyaviy yordam beradi.

5. Texnologiyalar va ilmiy parklarning konglomeratlari (kamarlari), ularning aqsadi butun mintaqalarni yuqori texnologik zonalarga aylantirishdir. Eng taniqli konglomerat dunyoga mashhur Silikon vodiysi bo‘lib, u ko‘plab ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, institutlari, ilm-fanni talab qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalardan iborat.

Zamonaviy texnoparklar alohida, o‘ziga xos markazlar bo‘lib, ular o‘z ichiga turli xil tarmoq yo‘nalishlari mutaxassislarini birlashtiradi, ular texnologiyalar bilan erkin almashadigan bozorda harakat qiluvchi tadqiqotchilarni, ishlab chiqaruvchilar va texnologiyalarni iste‘mol qiluvchilarni erkin axborot almashish va kommunikatsiya qilish uchun uchrashtiradigan joy hisoblanadi. Zamonaviy texnoparklarning samarasi ularning tadqiqotlar olib borish salohiyatining diversifikatsiyalashuviga bog‘liq. Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlatxususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg‘armalari mablag‘larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko‘nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llabquvvatlashni talab etmoqda. Startap loyihalarni moliyalashtirish natijasida 150 dan ortiq kichik va o‘rta biznes korxonalarini tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning jami ishlab chiqarish quvvati 138,0 mlrd. (0 va 2 ta nuqta ) so‘mdan ortiq. Ushbu korxonalarda 200 dan ortiq yangi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi hamda xizmatlar ko‘rsatilish yo‘lga qo‘yilgan. Innovatsion infratuzilma sub‘yektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘p omillarga bog‘liq, ular orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsion doiradagi tadbirkorlikning tashkiliy shakllari mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat har-xil shakllarning rivojlanishi darajasi va bosqichining ahamiyati ularning tashkiliy rivojlanish darajasi va tashkilotga bog‘liq. Tashkilotning ichki tartib tizimi, uning bo‘limlari bilan o‘zaro harakatni, jarayonlar va harakatlar mosligini, bo‘imlar o‘rtasidagi to‘liq o‘zaro aloqa va ta’lim yo‘naltirilganligini xarakterlaydi. Ijtimoiy faoliyat darajasida tashkilot kishilarning birlashishini, u yoki bu dasturlarning aniq maqsadga

erishishi jarayonida birga ishlab chiqish, oʻrnatilgan xulq-atvor normalari va qoidalariga mos harakat qilishni namoyon etadi. Tashkiliy rivojlanish darajasi uchun maqsadni amalga oshirishda samaradorlik kata ahamiyatga ega. Tashkiliy rivojlanish darajasida sinergetik natija elementlarni boʻlingan qismlari yigʻindisi ularning tashkilotdan tashqaridagi tarqoq qismlarining faoliyatini taʼminlaydi. Kibernetikada obʼektlarning tizimli rivojlanish darajasi sifatida tashkilotning rivojlantirishdagi obʼektlarining asosiy gʻoyalari muammosini oʻrganish oʻz ifodasini topgan. Tashkilot boshqarish jarayoni va tarkibiy tizimi, ularning turfa darajasi oʻrtasidagi innovatsion oʻzaro harakatni namoyon etadi.

Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tuzilmalari amalga oshirishda tashkilot shakllari, innovatsion faoliyat tashkiliy usullari kata ahamiyatga ega. Innovatsion tadbirkorlikda tashkiliy shakllarni innovatsion gʻoyalarni amalga oshirishni hal qilishda rol oʻynaydi. Innovatsion gʻoya innovatsion tadbirkorlikning faqat boshlangʻich bosqichini koʻrib chiqadi. Uni amalga oshirish esa tashkiliy tuzilma bilan bogʻliq. Bugungi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda.

### **Adabiyotlar :**

1. Mahmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. Oʻquv qoʻllanma.–T.: Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2005. – 170 bet.
2. Gʻozibekov D.Gʻ. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T: Moliya, 2003, 26 b.
3. U.S.Nodirxonov, S.M.Arslanbekov, N.B.Shanazarova. Xorijiy investitsiyalar. Oʻquv qoʻllanma. 2024. 119 b.